

X. TRANSPORT

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Yuk tashish. 2021 yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti tomonidan 24,8 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 618,9 mln. t-km.ni tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 105,5 % ni tashkil qildi.

Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi (2021 yilning yanvar-iyun holatiga)

	2021 yil	2020 yilga nisbatan, % da
Tashilgan yuk, mln. tn	24,8	109,2
Yuk aylanmasi, mln. t-km	618,9	105,5

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yuk aylanmasining o‘sish sur’ati 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi va 409,0 mln. t-km. ga etdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 66,1 % ni tashkil etdi (2020 yilning yanvar-iyun oylarida 68,5 %).


Samarqand viloyatining shahar va tumanlari kesimida tashilgan yuk bo‘yicha etakchi o‘rinni Samarqand shahri (3787,3 ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand (1851,2 ming tonna) tumani, Pastdarg‘om (1637,0 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, ming tonna
(2021 yilning yanvar-iyun holatiga)

	Jami tashilgan yuk, ming tonna	2020 yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat bo‘yicha	24844,3	109,2	100,0
Samarqand sh.	3787,3	111,3	15,2
Kattaqo‘rg‘on sh.	2615,2	107,8	10,5
tumanlar:			
Bulung‘ur	1697,7	110,2	6,8
Jomboy	1455,3	111,1	5,9
Ishtixon	1436,3	109,7	5,8
Kattaqo‘rg‘on	1283,4	110,1	5,2
Narpay	997,6	108,1	4,0
Nurobod	1171,1	104,6	4,7
Oqdaryo	1253,7	105,4	5,0
Payariq	1233,7	110,2	5,0
Pastdarg‘om	1637,0	110,6	6,6
Paxtachi	1046,2	104,3	4,2
Samarqand	1851,0	111,3	7,5
Urgut	1337,1	112,3	5,4
Toyloq	1091,4	109,3	4,4
Qo‘shrabot	950,4	104,9	3,8

Ko‘rsatilgan yuk tashishda yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar Narpay (997,6 ming tonna) Qo‘shrabot (950,4 ming tonna) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da
(2021 yil yanvar-iyun)**



Hududlar bo'yicha tashilgan yukningyuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Samarqand (15,2 %) shahar egalladi. Shu bilan birga Samarqand (7,5 %) va Pastdarg'om (6,6 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida etakchi o'rinni Samarqand shahar (245820,5 ming tonna-km) shahri egalladi. Shu bilan birga engyuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (28031,0 ming tonna-km), Bulung'ur (26099,2 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km
(2021 yilning yanvar-iyun holatiga)

	ming tonna-km	2020 yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat bo‘yicha	618 855,5	105,9	100,0
Samarqand sh.	245 820,5	106,0	39,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	41 761,9	104,8	6,7
tumanlar:			
Bulung‘ur	26 099,2	104,9	4,2
Jomboy	21 374,6	105,1	3,5
Ishtixon	25 353,8	105,8	4,1
Kattaqo‘rg‘on	25 221,1	104,5	4,1
Narpay	18 897,6	102,4	3,1
Nurobod	22 186,4	103,1	3,6
Oqdaryo	21 709,6	105,2	3,5
Payariq	23 820,4	104,2	3,8
Pastdarg‘om	22 998,9	107,6	3,7
Paxtachi	20 846,4	106,0	3,4
Samarqand	23 286,4	108,1	3,8
Urgut	25 449,4	108,8	4,1
Toyloq	25 997,7	104,5	4,2
Qo‘shrabot	28 031,0	102,1	4,5

Ko‘rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo‘limgan tonna-km quyidagi shahar va tumanlarda, Narpay (18897,6 ming tonna-km) va Paxtachi (20846,4) ming tonna-km tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2021 yil yanvar-iyun)**



Hududlar bo'yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Samarqand (39,7 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Bulung'ur (6,7 %) va Qo'shrabot (4,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil trasnporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yo'lovchi tashish. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 207,1 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasining ushbu davrda o'sish sur'ati 102,0 % ga etib, 6641,7 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Avtomobil transport yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi

	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yilga nisbatan, % da</i>
--	-----------------	--

Transportda tashilgan yo‘lovchilar, mln. kishi	207,1	103,8
Yo‘lovchiaylanmasi, mln. yo‘lovchi-km	6641,7	102,0

Jami avtomobil transportidagi yo‘lovchi aylanmasi 2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,0 % ga etdi va 6641,7 mln. yo‘lovchi-km ni tashkil qildi.

Viloyatning tuman, shaharlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchi bo‘yicha etakchi o‘rinni Samarqand (25145,7 ming kishi) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko‘rsatkichlar Pastdarg‘om (15354,5 ming kishi), Samarqand (14623,3 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi (2021 yil yanvar-iyun holatiga)

	<i>ming kishi</i>	<i>2020 yilga nisbatan, % da</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
--	-------------------	--	--------------------------------------

Viloyat bo‘yicha	207145,0	103,8	100,0
-------------------------	-----------------	--------------	--------------

Samarqand sh.	25145,7	115,2	12,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	16040,0	102,5	7,7
tumanlar:			
Bulung‘ur	12450,8	102,4	6,0
Jomboy	10993,4	100,6	5,3
Ishtixon	9110,4	99,2	4,4
Kattaqo‘rg‘on	11533,7	102,3	5,6
Narpay	10097,7	101,7	4,9
Nurobod	9358,7	99,0	4,5
Oqdaryo	12646,7	102,2	6,1
Payariq	10900,5	99,9	5,3
Pastdarg‘om	15354,5	102,0	7,4
Paxtachi	15148,9	101,5	7,3
Samarqand	14623,3	108,4	7,1

Urgut	12095,9	110,3	5,8
Toyloq	12672,0	102,2	6,1
Qo'shrabot	8972,9	98,3	4,3

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar, Qo'shrabot (8972,9 ming kishi) va Ishtixon (9110,4 ming kishi) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da (2021 yil yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo'lovchining yuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Samarqand (12,1 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Pastdarg'om (7,4 %), Paxtachi (7,3 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yo'lovchi aylanmasi hajmida etakchi o'rinni Samarqand shahri (1163,5mln. yo'lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich bilan Pastdarg'om (484,3 mln. yo'lovchi-km), Payariq (433,0 mln. yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km
(2021 yil yanvar-iyun holatiga)**

	<i>mln. yo‘lovchi-km</i>	<i>2020 yilga nisbatan % da</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Viloyat bo‘yicha	6641,7	101,2	100
Samarqand sh.	1163,5	102,2	17,5
Kattaqo‘rg‘on sh.	430,5	96,6	6,5
tumanlar:			
Bulung‘ur	423,1	102,1	6,4
Jomboy	328,2	102,8	4,9
Ishtixon	272,8	103,0	4,1
Kattaqo‘rg‘on	349,0	102,1	5,3
Narpay	290,4	101,2	2,2
Nurobod	241,3	101,9	3,6
Oqdaryo	428,8	102,3	6,5
Payariq	433,0	103,6	6,5
Pastdarg‘om	484,3	105,8	7,3
Paxtachi	400,4	102,9	6,0
Samarqand	426,3	103,2	6,4
Urgut	388,3	101,0	5,8
Toyloq	367,9	99,6	5,5
Qo‘shrabot	213,8	102,0	3,2

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Nurobod (241,3 mln. yo‘lovchi-km) va Qo‘shrabot (213,8 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida
hududlarning ulushi, % da**
(2021 yil yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Samarqand (17,5 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Pastdarg'om (7,3 %), Oqdaryo (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.

**Avtomobil transportida yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**
(2021 yil yanvar-iyun oylarida)

